



## NIL GEYMANNING “KORELAYN” ASARIDA TUGMA KO‘ZLAR ORTIDAGI HAQIQAT.

*FarDu 1-kurs magistranti*

*Akramova Setorabonu Umidjon qizi*

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada zamonaviy ingliz adabiyotining taniqli vakili Nil Gaiman qalamiga mansub "Korelayn" qissasining falsafiy va psixologik qatlamlari tadqiq etiladi. Maqolada asardagi "Boshqa dunyo", "Tugma ko‘zlar" va "Beldam" obrazlari orqali insoniy ehtiyojlar, tilaklar xavfi hamda haqiqiy jasorat tushunchasi tahlil qilingan. Shuningdek, asarning o‘smirlar o‘zligini anglash jarayonidagi ahamiyati va borliqni boricha qabul qilish falsafasi yoritib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Nil Geyman, Korelayn, fentezi, tugma ko‘zlar, jasorat, parallel dunyo, ramziylik

### АННОТАЦИЯ

В данной статье исследуются философские и психологические пласты повести Нила Геймана «Коралина», ставшей классикой современной английской литературы. Через анализ образов «Другого мира», «пуговиц вместо глаз» и Бельдам рассматриваются концепции человеческих потребностей, опасности иллюзорного совершенства и истинного мужества. Также освещается роль произведения в процессе самопознания подростка и философия принятия реальности в её несовершенном виде.

**Ключевые слова:** Нил Гейман, Коралина, фэнтези, пуговицы вместо глаз, мужество, параллельный мир, символизм, архетипический анализ



## ANNOTATION

This article explores the philosophical and psychological layers of Neil Gaiman's novella, *Coraline*, a masterpiece of contemporary English literature. The study analyzes the symbolism of the "Other World," the "Button Eyes," and the character of the Beldam to examine human desires, the danger of wished-for perfections, and the true essence of bravery. Furthermore, it highlights the importance of the work in the context of adolescent self-discovery and the philosophy of appreciating reality despite its flaws.

**Key words:** Neil Gaiman, *Coraline*, fantasy, button eyes, bravery, parallel world, symbolism, archetypal analysis.

Adabiyot olamida shunday asarlar borki, ular kitobxonni shunchaki qiziqarli syujet bilan chalg'itmaydi, balki uning eng chuqur qo'rquvlari va yashirin istaklari bilan yuzlashtiradi. Nil Geymanning "Korelayn" qissasi aynan shunday asarlar sirasiga kiradi. 2002-yilda nashr etilgan ushbu asar qisqa fursat ichida zamonaviy "dark fantasy" (qora fentezi) janrining etaloniga aylandi.

Geyman ushbu qissa orqali bolalar adabiyotidagi yaxshilik, ezgulik haqidagi asar qoliplarini parchalab tashladi. Muallifning o'zi ta'kidlaganidek, "Bolalar bu asarni sarguzasht sifatida o'qishsa, kattalar uni daxshatli tush sifatida qabul qilishadi". Bu paradoks asarning naqadar ko'p qatlamli ekanligidan dalolat beradi. Asar davomida biz Nil Geyman yaratgan bu mitti dunyo nima uchun millionlab insonlar qalbini titratishini tushunishga harakat qilamiz. U shunchaki qo'rqinchli maxluqlar haqida emas, balki inson psixologiyasining eng nozik qirralari e'tibor, yolg'izlik va jasorat haqidagi falsafiy tadqiqotdir.

Asar qahramoni Korelayn Jonesning ichki holatiga nazar tashlasak, u o'zining yoshi uchun g'ayritabiiy darajada qiziquvchan, ammo ayni damda chuqur yolg'izlikni his qilayotgan qizcha bo'ladi. Asar yangi uyga ko'chib o'tish sahnasi bilan boshlanadi. Yangi muhit doim kashfiyotlar va'da qiladi, biroq Korelayn uchun



bu faqat zerikish manbaiga aylanadi. Uning ota-onasi yomon insonlar emas, lekin ular zamonaviy dunyoning "qurbonlari" bo'lib, ular doim ish bilan band, kompyuter qarshisida va qizining ichki kechinmalariga vaqt ajrata olishmaydi. Bola o'zini dunyoga kerakli va e'tiborda his qilmasa, u o'zining virtual yoki hayoliy dunyosini yaratishga majbur bo'ladi.

Asar davomida uydagi o'n to'rtinchi eshikni ko'ramiz, bu asarning markaziy nuqtasi. Uning orqasida hech narsa yo'qligi, faqat g'isht devor mavjudligi Korelaynning qiziqishini so'ndirmaydi, aksincha, alangalatadi. Nil Geyman bu yerda klassik adabiyotdagi "taqiqlangan meva" simbolikasidan foydalanadi. G'isht devor ham real dunyo va illuziyalar dunyosi o'rtasidagi chegara. Korelayn chegara buzilishini istaydi, chunki u o'z hayotidagi rangsizlikdan qutulishning yagona yo'li "boshqa narsa" topish ekanligiga ishonadi. Geyman ekspozitsiyada kitobxonni sekin-asta shunday xulosaga tayyorlaydi. Ba'zan biz qidirayotgan "sehrli dunyo" bizni qutqarish uchun emas, balki bizni yutib yuborish uchun ochiladi.

Korelayn sirli eshikdan o'tib, o'z uyining yaxshilangan nusxasiga tushib qolganda, u dastlab daxshatni emas, balki hayratni his qiladi. Bu dunyo insonning eng yashirin istaklari moddiylashgan joydir. "Boshqa dunyo" bu ranglarning yorqinligi, taomlarning mazaliligi va ota-onaning cheksiz e'tibori dunyosi ramzi bo'lib xizmat qiladi. Haqiqiy dunyodagi zerikarli sabzavotli taomlar o'rniga, bu yerda oltin rangli tovuq go'shti, shokoladli tortlar va har bir bolaning orzusidagi shirinliklar poyandoz bo'ladi. Boshqa onasi Korelaynning har bir so'zini tinglaydi, u bilan o'ynaydi va unga o'zini dunyoning markazi sifatida his qilish imkonini beradi. Nil Geyman bu yerda baxtning iste'molchilik modeli ni ko'rsatib beradi. Biz ko'pincha baxtni faqat istaklarimizning cheksiz qondirilishida deb bilamiz. Ammo muallif bu "jannat"ning sun'iyiligini kitobxonning ko'zi bilan emas, balki qahramonning sezgilari bilan fosh qiladi.



Asarning eng dahshatli va unutilmas vizual detali parallel dunyo aholisining ko'zlari o'rnidagi qora, yaltiroq tugmalardir. Bu shunchaki qo'rqitish uchun o'ylab topilgan detal emas, balki chuqur falsafiy ma'noga ega. Ko'z — qalb oynasidir. Insonning ko'zlari uning ichki dunyosini, his-tuyg'ularini va erkin irodasini aks ettiradi. Tugmalar esa jonsizlik ramzi. Ularda hech qanday chuqurlik yo'q, ular faqat tashqi nurni qaytaradi, lekin ichkaridan nur sochmaydi. Ko'rlik va asoratni ko'rishimiz ham mumkin, boshqa onasi Korolaynaga ham tugma tikishni taklif qilganida, bu aslida "erkinlikdan voz kechish" sharti edi. Tugmalar tikilgan lahzada inson o'zining individual o'zligini yo'qotadi va manqurtga aylanadi. Tugma ko'zlar insonning o'z haqiqatidan voz kechib, jozibador illuziyaga qul bo'lishining bahosidir. Geyman bizga shuni uqtiradiki, haqiqiy ko'zlar ba'zan yosh to'kishi yoki charchoqni ko'rsatishi mumkin, lekin ular doim tirik bo'ladi. Haqiqiy dunyo eskirgan, devor qog'ozlari ko'chgan va havo biroz nam bo'lishi mumkin, lekin u haqiqiy. "Boshqa dunyo" esa faqat boshqalarning xohishi va Korelaynning xotiralari asosida qurilgan qobiqdir. Agar Korelayn uydan uzoqroqqa ketsa, u yerda dunyo tugab qoladi va faqat oq bo'shliq qoladi.

Nil Geyman "Korolayna"da har bir qahramonni ma'lum bir g'oya yoki kuchning timsoli sifatida yaratgan. Ularni tahlil qilish asarning tub mohiyatini tushunishga yordam beradi.

Beldam (Boshqa ona) "Beldam" so'zi arxaik ingliz tilida "yovuz kampir" yoki "ajina" degan ma'nolarni anglatadi. U asarning markaziy antagonisti hisoblanib, shunchaki yovuz maxluq emas, u "yutib yuboruvchi ona" (The Devouring Mother) arxetipidir. Nega aynan ona qiyofasi? Inson uchun eng xavfsiz va ishonchli siymo ona siymosidir. Beldam bu qiyofani Korelaynning eng nozik nuqtasini zabt etish uchun tanlaydi. U o'z qurbonlarini yaxshi ko'rgani uchun emas, balki ularning hayotiy quvvati va quvonchi bilan oziqlanish uchun o'ziga tortadi. Uning



o'rgimchaksimon tabiati, u to'qigan mukammal hayot to'ri aslida o'lim tuzog'i ekanligini anglatadi.

Mushuk parallel dunyoda o'zgarishsiz qolgan va Beldamga bo'ysunmaydigan yagona mavjudot hisoblanadi. Mushukning ta'kidlashicha, mushuklarga ism kerak emas, chunki ular kimligini biladi. Bu uning o'zligiga bo'lgan mustahkam ishonchi va mustaqilligini bildiradi. U Korelaynga tayyor yechimlarni bermaydi, balki uning aqlini charxlaydi. Mushuk klassik adabiyotdagi ustoz obrazidir. U ikki dunyo o'rtasidagi farqni va Beldamning zaif nuqtalarini ko'rsatib beruvchi yagona nurdur.

Boshqa ota obrazi asarning eng fojiali qahramonlaridan biridir. Agar Beldam qudratli bo'lsa, ota shunchaki "yaratilgan" narsa. U Beldamning xohishlarini bajarishga majbur bo'ladi. U Korelaynga yordam berishni istasa-da, o'z irodasiga ega emas obrazdir. Bu qahramon orqali muallif irodasiz, faqat buyruq bajaruvchi va o'zligini yo'qotgan insonning fojiasini ko'rsatadi. Uning asar oxirida amorf (shaklsiz) maxluqqa aylanishi o'zliklikning yakuniy nuqtasidir.

Miss Spink va Miss Forciblelarni ham uchratamiz, ular haqiqiy dunyodagi bu keksaygan aktrisalar parallel dunyoda yosh va go'zal bo'lib namoyon bo'lishadi. Biroq, ularning yoshligi tugamaydigan, ma'nosiz spektakl ichiga qamalib qolgan tasvirdir. Geyman bu orqali o'tmishga yopishib olish va haqiqatdan qochishning samarasizligini ko'rsatadi.

Nil Geyman "Korelayn" orqali kitobxonga bir necha fundamental savollarni beradi: Baxt nima? Jasorat qayerdan keladi? Bizni biz qiladigan narsa nima? Asarning eng mashhur iqtibosi aynan jasorat haqidadir. "Jasorat qo'rqmaslik emas, balki daxshatli darajada qo'rqsang ham, o'zingni to'xtatmasdan olg'a qadam bosishdir". Korelayn parallel dunyoga ikkinchi marta qaytganida, u endi qiziquvchan bola emas, balki o'z harakatlarining oqibatini anglagan qahramon sifatida namoyon bo'ladi. U o'zini qutqarish uchun emas, balki ota-onasi va o'g'irlangan bolalar ruhlari uchun xavfga tik boradi. Geyman bu yerda jasoratni



boshqalarni o‘ylash va mas’uliyat bilan bog‘laydi. Asar davomida mushuk Korelaynga bir gapni aytadi: "Siz hamma xohlagan narsangizga erishishni xohlaysiz deb o‘ylaysiz, lekin aslida bunday emas". Insonning baxti uning barcha ehtiyojlari bir zumda qondirilishida emas, balki maqsad sari intilishda va qiyinchiliklarni yengishdadir.

"Boshqa ona" taklif qilgan dunyoda hech qanday qarshilik yo‘q. Hamma narsa tayyor va "ideal". Ammo bunday dunyoda shaxsiyat rivojlanishi to‘xtaydi. Qarshiliksiz hayot turg‘unlik va oxir-oqibat ruhiy o‘limdir. Korelayn o‘zining nuqsonli, band va ba‘zan e‘tiborsiz ota-onasini tanlash orqali, aslida o‘shish imkoniyatini tanlaydi. Korelaynning sayohati ramziy ma’noda bolalikdan o‘smirlik va voyaga yetish sari qo‘yilgan qadamdir. Biz dunyo faqat bizning atrofimizda aylanishini xohlaysiz. Dunyoning murakkabligini, ota-onamiz ham xato qilishi mumkin bo‘lgan oddiy insonlar ekanligini va baxt uchun kurashish kerakligini anglaymiz. Korelaynning Beldam bilan o‘ynagan shaxmat o‘yini uning intellektual va ma’naviy yetukligi imtihonidir. U kuch bilan emas, balki sovuqqonlik va mantiq bilan g‘alaba qozonadi. Asar yakunida Korelayn o‘zining eski, zerikarli hayotiga qaytganda, u hamma narsani boshqacha ko‘ra boshlaydi. Yomg‘ir endi unga zerikarli tuyulmaydi, uydagi har bir buyum o‘z qadriga ega bo‘ladi.

## XULOSA

Nil Geymanning "Korelayn" asari bo‘yicha olib borgan tahlillarimiz shuni ko‘rsatadiki, bu asar shunchaki bolalar uchun yozilgan qo‘rqinchli ertak emas. Insonning o‘zligi, erkinligi va haqiqati uchun kurashi haqidagi chuqur falsafiy manifestdir.

Geyman asarda "eksistensial minnatdorlik" g‘oyasini ilgari suradi. Haqiqiy mo‘jiza parallel dunyolarda emas, balki biz yashayotgan, his qilayotgan va o‘zgartira oladigan mana shu real hayotdadir.



Bugungi raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar davrida "Boshqa dunyo" metaforasi har qachongidan ham dolzarbroq. Biz ko‘pincha ekranlar ortidagi "ideal", filtrlar bilan bezatilgan hayotga mahliyo bo‘lamiz. Bu virtual dunyolar bizga xuddi Beldam kabi: "Siz biz bilan qoling, bu yerda hamma narsa chiroyli, siz bu yerda markazdasiz" deb pichirlaydi. Biroq, bu yaltiroq dunyoning bahosi bizning haqiqiy hayotimiz, vaqtimiz, samimiy tuyg‘ularimiz va ruhimizdir. "Tugma ko‘zlar" bugun bizning smartfonlarimizga aylangan bo‘lishi ham mumkin.

Geyman ota-onalarga farzandining zerikishi aslida katta kashfiyotlar oldidagi sukunat ekanligini, bolalarga esa haqiqiy mehr bandlik yoki charchoq ortida yashirinishi mumkinligini eslatadi. Haqiqiy ona Korelaynning injiqliklarini har doim ham bajarmaydigan, ba’zan dars qilishga majburlaydigan, lekin u uchun o‘zini fido qiladigan insondir. Beldam esa faqat iste’mol qiluvchi soxta muhabbat timsolidir.

"Korelayn" asarida hamma narsa mukammal bo‘lgan dunyoda yashash emas, balki o‘zimiz yashayotgan dunyoni kamchiliklari bilan birga sevish va uni yaxshilashga intilishdir.

Asar yakunida qahramonning: "Men endi hech narsadan qo‘rqmayman" deb aytishi, uning nafaqat Beldam ustidan, balki o‘zining ichki zaifliklari ustidan ham g‘alaba qozonganini anglatadi. Nil Geyman yaratgan bu mitti qahramon bizga o‘z eshigimiz ortidagi g‘isht devorlarni buzib o‘tishda emas, balki o‘z uyimizning rangsiz devorlari ichidan haqiqiy ranglarni topishda yordam beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Gaiman, N. (2002). *Coraline*. HarperCollins.
2. Geiman, N. (2018). *Korelayn*.



3. Campbell, J. (1949). *The Hero with a Thousand Faces*. Princeton University Press.
4. Propp, V. (1968). *Morphology of the Folktale*. University of Texas Press.
5. Bettelheim, B. (1976). *The Uses of Enchantment: The Meaning and Importance of Fairy Tales*. Knopf.
6. Rudd, D. (2008). The "Be-All and End-All" of Alice: Concepts of Agency in "Alice's Adventures in Wonderland" and "Coraline". *Children's Literature in Education journal*
7. Gaiman, N. (2009). *Why We Need Stories*.